

O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti huzuridagi Statistika
agentligining 2025- yil "31" yanvardagi
11 - son buyrug'iga ilova

Transport statistikasi ko'rsatkichlarini shakllantirish bo'yicha
uslubiy nizom

"Transport statistikasi ko'rsatkichlarini shakllantirish bo'yicha uslubiy nizom" O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 11-avgustdagi O'RQ-707-son "Rasmiy statistika to'g'risida"gi Qonuniga va xalqaro standartlarga muvofiq, transport statistikasi bo'yicha statistik ko'rsatkichlar tizimini shakllantirish, ularning xalqaro darajada taqqoslanishini ta'minlash maqsadida, statistika organlari tomonidan respublika transport kompleksining holati va rivojlanishini tavsiflovchi ishonchli, rasmiy axborotni taqdim etish uchun statistika kuzatuvlarini o'tkazishda, transport sohasida o'z faoliyatini amalga oshirayotgan yuridik va jismoniy shaxslarning faoliyati to'g'risidagi statistik ma'lumotlarni olishning asosiy jihatlari va usullarini belgilaydi.

Uslubiy nizom Statistik ma'lumotlarni ishlab chiqish jarayonlarining namunaviy modeli (Generic Statistical Business Process Model (keyingi o'rinlarda – GSBPM)) talablari asosida ishlab chiqilgan.

1- bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur uslubiy nizomda transport statistikasi (quvur yo'li, temir yo'l, avtomobil, havo yo'li, daryo, elektr transporti) bo'yicha statistika kuzatuvlarini tashkil etish va o'tkazish tartibi, ma'lumotlarni shakllantirish uchun foydalaniladigan axborot manbalari, tasniflashlar, asosiy tushunchalar, atamalar, ularni aniqlash, shuningdek, alohida statistik ko'rsatkichlarni hisoblash tartibi to'g'risidagi ma'lumotlar mavjud bo'lib, ushbu uslubiy nizom GSBPMning qayta ishlash bosqichi doirasida ma'lumotlarni integratsiyalash, tasniflash va kodlashtirish, yangi ko'rsatkichlarni shakllantirish, umumlashtirish hamda qayta ishlash jarayonlarini o'z ichiga oladi.

2. Transport sohasida turli xo'jalik yurituvchi subyektlar hajmi, tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha faoliyat yuritadi. Shuning uchun transport statistikasi o'zaro bog'liq bo'lgan statistika kuzatuvlari va ma'muriy ma'lumotlar tizimi bilan

ifodalanadi, ularning har biri o'z mavzusi va statistik kuzatuvlar birliklarini shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlariga ega.

3. Mazkur uslubiy nizomda quyidagi asosiy tushuncha va atamalardan foydalaniladi:

transport statistikasi – transport sohasidagi o'zaro bog'liq statistik kuzatuvlar va ma'muriy ma'lumotlar tizimi bo'lib, ularning har biri o'z mavzusi va statistik kuzatuv birliklarini shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlariga ega. Statistikaning alohida tarmog'i sifatida temir yo'l, avtomobil, elektr, quvur va havo transportlari faoliyati, shuningdek, avtomobil yo'llari infratuzilmasining asosiy ko'rsatkichlari bo'lgan yuk va yo'lovchilarni tashish, transport vositalarining mavjudligi, qatnov yo'llari va boshqa ko'rsatkichlarni o'rganadi;

avtomobil transporti – yuridik va jismoniy shaxslar ishtirokidagi sanoat va texnologik majmua bo'lib, u yo'lovchilar, bagaj va yuklarni, shu jumladan pochta aloqasini (keyingi o'rinlarda yo'lovchilar, bagaj va yuklarni) avtotransport bilan ta'minlashda iqtisodiyot va aholining ehtiyojlarini qondiradi;

temir yo'l transporti – umumiy foydalanishdagi va umumiy foydalanishda bo'lmagan temir yo'l transportidan iborat bo'lgan hamda jismoniy va yuridik shaxslarning temir yo'llar bo'ylab tashishlarga bo'lgan ehtiyojini ta'minlash uchun mo'ljallangan transport turi;

umumiy foydalanishdagi temir yo'l transporti — temir yo'l transporti infratuzilmasini, harakatdagi temir yo'l tarkibini, boshqa mol-mulkni o'z ichiga olgan hamda ommaviy shartnomalar asosida yuridik va jismoniy shaxslarning tashishlarga bo'lgan ehtiyojini ta'minlash uchun mo'ljallangan yagona ishlab chiqarish-texnologik majmua;

umumiy foydalanishda bo'lmagan temir yo'l transporti – yuridik shaxslarga tegishli bo'lgan, harakatdagi temir yo'l tarkibini va umumiy foydalanishda bo'lmagan temir yo'l transporti infratuzilmasi obyektlarini o'z ichiga olgan, shartnoma asosida yuridik va jismoniy shaxslarning ehtiyojlarini ta'minlash, shuningdek umumiy foydalanishda bo'lmagan joylardagi shaxsiy ehtiyojlar uchun mo'ljallangan ishlab chiqarish-texnologik komplekslar majmui;

magistral quvur transporti – mahsulotni qabul qilish punktidan yetkazib berish punktigacha magistral quvurlar orqali texnik tartibga solish va standartlashtirish sohasidagi texnik normativ-huquqiy hujjatlar talablariga muvofiq tayyorlangan mahsulotlarni tashish uchun mo'ljallangan transport turi bo'lib, boshqa quvurlarga, boshqa transport yoki saqlash turiga yetkazishni ta'minlaydi;

havo transporti – havo kemalari (yo‘lovchilar, yuklarni tashish yoki aviatsiya xizmatlarini ko‘rsatish uchun mo‘ljallangan samolyotlar, vertolyot, dron, deltalet, issiq havo sharlari, dirijabl va havo kemalari) va ulardan foydalanish uchun zarur bo‘lgan infratuzilmani o‘z ichiga olgan transport turi, bular: aeroportlar, dispatcherlik va texnik xizmatlar;

elektr transporti – energiya manbai sifatida elektr – energiyasidan foydalanadigan transport turi va tortish elektr motoridan foydalaniladi. Tashqi yoki ichki yonish dvigatellari bilan ishlaydigan transport vositalariga nisbatan uning asosiy afzalliklari – yuqori mahsuldorlik va ekologik xavfsizlikdir. Elektr transportida statistik kuzatuv obyekti yo‘lovchilarni tashish, harakatlanuvchi tarkib, undan foydalanish, yo‘l stansiyalari, transport ishlarining moliyaviy natijalari hisoblanadi. Statistik kuzatuv birligini metro, tramvay va trolleybus korxonalarini tashkil etadi;

daryo transporti (ichki suv yo‘li transporti) – yo‘lovchilar, yuk va bagajlarni tashish ichki suv yo‘llari orqali ichki suzish kemalaridan foydalangan holda amalga oshiriladigan transport turi, shuningdek, kichik hajmli kemalar ishtirokida yuk tashish uchun ishlatiladigan transport turi;

tashilgan yuk (yuk tashish hajmi) – transport orqali tashilgan yuklarning tonnalaridagi miqdori (pullik bagaj, yuk bagaji, pochta va kuryerlik jo‘natmalarini qo‘shgan holda). Ko‘rsatkich transport turlari, qatnov, yuk turlari bo‘yicha hisobga olinadi. Yuklarni tashish jarayonining dastlabki daqiqasi “jo‘natilgan yuklar (jo‘natish)” yoki chegara punktida “yuklarni qabul qilish” ko‘rsatkichi bilan aks ettiriladi, yakuniy nuqta – “kelib tushgan yuklar (kelib tushishi)” yoki chegara punktida “yuklarni topshirish” ko‘rsatkichi hisoblanadi. Transportning barcha turlari uchun (avtomobil transportidan tashqari) tashilgan yuklarning hajmi jo‘natish vaqtida ko‘rsatiladi. Avtotransportda, tashilgan yuklarning hisob-kitobi kelish vaqtida amalga oshiriladi.

Ayrim transport tashkilotlari uchun bajargan ishining umumiy hajmini tavsiflash uchun “yuklarni tashish (tashish)” ko‘rsatkichi qo‘llaniladi, bunda jo‘natilgan yuklar va boshqa tashkilotlardan tashish uchun qabul qilingan yuklarning yig‘indisi bilan ifodalanadi. Yuklarni tashish statistikasida kuzatuv birligi bo‘lib – jo‘natish hisoblanadi, ya’ni, yuk partiyasi tashish shartnomasi bilan rasmiylashtirilgan bo‘lishi lozim. Tashilgan yuk hajmi statistika ko‘rsatkichini hisobini yuritishda kelib tushgan yuklar, ya’ni bunda yuk tashish shartnomasi bilan rasmiylashtirilgan yuk partiyasi (kelib tushgan) inobatga olinadi.

tashilgan yo‘lovchilar – muayyan vaqt ichida tashilgan yo‘lovchilar soni transport va qatnov turlari bo‘yicha hisobga olinadi. Yo‘lovchi tashish statistikasida

kuzatuv birligi yo'lovchilar soni hisoblanadi. Jo'natilgan yo'lovchilarni hisobga olish vaqti transportning ayrim turlarida bir xil emas: yoki chipta sotib olingan sana bo'yicha (temir yo'l, avtomobil, elektr transportida) yoki transport vositasi jo'natilgan sanasi (suv va havo transportida (rezident aviakompaniyalar tomonidan xalqaro yo'nalishda kelgan va jo'nab ketayotgan yo'lovchilar soni (shu jumladan, tranzit va transfer) hamda faqat mahalliy yo'nalishda jo'nab ketayotgan yo'lovchilar soni)) bo'yicha hisobi yuritiladi.

Yo'lovchilarni tashish to'g'risidagi ma'lumotlar bepul va imtiyozli sayohat qilish huquqidan foydalanadigan yo'lovchilarni hisobga olgan holda taqdim etiladi;

transportning yuk aylanmasi – transportning yuk tashish bo'yicha ish hajmi o'lchov birligi tonna – kilometr hisoblanadi. Tashilgan yukning har bir partiyasi (jo'natilgan) og'irligini uni tashilgan masofaga ko'paytmasining yig'indisi orqali aniqlanadi;

transportning yo'lovchi aylanmasi – yo'lovchining tashish masofasini hisobga olgan holda yo'lovchilarni tashish hajmini tavsiflovchi ko'rsatkich. Har bir tashish bo'yicha yo'lovchilar sonini tashish masofasiga ko'paytmasini yig'indisi orqali aniqlanadi. O'lchov birligi yo'lovchi-kilometr, ya'ni yo'lovchini 1 km masofaga ko'chirish;

yuklarni tasniflash – transportda tashilayotgan mahsulotni ishlab chiqarishning o'ziga xos xususiyatlarini (kelib chiqishi, qayta ishlanganlik darajasi, maqsadi) va tashishning xususiyatini (harakatdagi tarkib turi, katta hajmli va boshqalar) aks ettiruvchi belgilar bo'yicha guruhlash. U nomenklatura deb nomlangan tizimli yuklar ro'yxati shaklida tuziladi;

tashish masofasi – ma'lum bir transport turida qatnov yo'li orqali obyektни jo'natish nuqtasidan belgilangan nuqttagacha tashish (transportirovka qilish) masofasi (kilometrda o'lchanadi);

qatnov yo'llari uzunligi – transport yo'llari uchastkalarining kilometrda umumiy uzunligi. Tarmoq uzunligi ma'lum bir sana uchun alohida uchastkalar uzunligini yig'ish orqali aniqlanadi;

yo'l transporti hodisasi – transport vositasining yo'ldagi qatnovi jarayonida sodir bo'lib, fuqarolarning o'limi yoki ularning sog'lig'iga zarar yetishiga, transport vositalari, inshootlar, yuklar shikastlanishiga yoki boshqa tarzda moddiy zarar yetkazilishiga sabab bo'lgan hodisa;

tashishlar xavfsizligi — texnogen (texnik va texnologik) xususiyatga ega tahdidlardan transport vositasi harakatlanish jarayonining hamda transport vositasining o'zining himoyalanganlik holatini ta'minlash bo'lib, bunda tashishlar xavfsizligiga oid qoidabuzarliklar va ularning fuqarolar hayotiga yoki sog'lig'iga,

jismoniy yoki yuridik shaxslarning mol-mulkiga, atrof-muhitga zarar yetkazilishiga sabab bo'ladigan oqibatlari yuzaga kelishining yo'l qo'yilmaydigan xavfi mavjud bo'lmaydi;

transport xavfsizligi — transport majmuining qonunga xilof aralashuvdan himoyalanganlik holati hamda uning odatdagi rejimda va favqulodda vaziyatlar hollarida barqaror ishlashining ta'minlanganligi;

magistral neft quvurlari – neftni ishlab chiqarish maydonidan neftni qayta ishlash korxonalari va tashkilotlariga, temir yo'l yuklash punktlariga, ma'lum bir maydon (kelib chiqish joyi) hududida joylashgan bosh nasos stansiyalariga, shuningdek, filiallarga tashish uchun mo'ljallangan quvurlar, alohida korxona va tashkilotlarga neft yetkazib berish uchun mo'ljallangan quvur yo'llari kiradi. Neft quvurlarining uzunligi bitta yo'nalish hisobida, jumladan, tarmoqlarning barcha uchastkalarining yonalish uzunliklari yig'indisi sifatida aniqlanadi;

magistral gaz quvurlari – gazni qazib olish yoki ishlab chiqarish joyidan gaz taqsimlash stansiyalariga uzoq masofalarga o'tkazish uchun mo'ljallangan quvurlar. Gaz quvurlarining uzunligi bosh nasos stansiyasining kirish kollektoridan gaz taqsimlash stansiyasining kirish kollektoriga va chiziqli krandan iste'mol punktining gaz taqsimlash stansiyasi kirish kollektoriga chiziqli ajratmalarning chiziqli uzunligini bir martalik hisoblashda quvurlarning barcha uchastkalari chiziqli uzunligi yig'indisi sifatida tavsiflanadi;

umumiy foydalanishdagi temir yo'llar — umumiy foydalanishdagi temir yo'l transporti sohasidagi vakolatli tashkilotga va uning bo'linmalariga tegishli bo'lgan, poyezdlarni o'tkazish, qabul qilish va jo'natish, bagajni, yuk bagajini, yuklarni, pochta va kuryerlik jo'natmalarini qabul qilish hamda berish va yo'lovchilarga xizmat ko'rsatish bo'yicha tegishli operatsiyalarni, manyovr ishlarini bajarish uchun ochiq bo'lgan, ajratilgan mintaqa doirasida peregonlar, temir yo'l stansiyalari, razyezdlar, quvib o'tish punktlari joylashgan temir yo'llar;

umumiy foydalanishda bo'lmagan temir yo'llar — yukni jo'natuvchilarga (jo'natuvchilarga) va yukni oluvchilarga (oluvchilarga) shartnoma shartlari asosida xizmat ko'rsatish yoki egalik qiluvchining o'z ehtiyojlari uchun texnologik ishlarni bajarishga mo'ljallangan umumiy foydalanishdagi temir yo'llarga bevosita yoki boshqa temir yo'l shoxobcha yo'llari orqali tutashadigan shoxobcha temir yo'llar, shuningdek umumiy foydalanishdagi temir yo'llarga tutashmaydigan temir yo'llar;

temir yo'l transporti infratuzilmasi — texnologik majmua bo'lib, u ushbu majmua faoliyatini ta'minlovchi temir yo'llarni, temir yo'l stansiyalarini, elektr ta'minoti qurilmalarini, aloqa tarmoqlarini, signalizatsiya, markazlashtirish

va bloklash tizimlarini, axborot majmualarini, harakatni boshqarish tizimini, binolar, inshootlar, qurilmalar, jihozlar va uskunalarni o'z ichiga oladi;

avtomobil transportining umumiy yuk hajmi – mavjud yuk avtomobillarining har bir rusumi bo'yicha ularning nominal yuk ko'tarish qobiliyati (ishlab chiqaruvchi zavod tomonidan berilgan pasporti asosida) yig'indisiga teng;

avtomobil transportining umumiy yo'lovchi sig'imi (o'rindiqlar soni bo'yicha), haydovchi o'rnini hisoblamagan holda har bir rusumdagi avtobuslar (mikroavtobuslar) sonini ularning o'rindiqlar bo'yicha sig'imiga ko'paytirishdan hosil bo'lgan ko'paytmani yig'indisi orqali aniqlanadi;

avtomobil yo'li – transport vositalari harakatlanishi uchun mo'ljallangan, ularning belgilangan tezlikda, og'irlikda, o'lchamlarda muttasil va xavfsiz harakatlanishini ta'minlaydigan muhandislik inshootlari majmuasi, shuningdek, ushbu majmuani joylashtirish uchun berilgan yer uchastkalari va majmua ustidagi belgilangan doiradagi bo'shliq;

umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llari – davlat mulki bo'lib, avtomobil yo'llaridan foydalanuvchilar uchun ochiqdir. Umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llari aholi ehtiyojlarini, davlatning ijtimoiy-iqtisodiy va mudofaa ehtiyojlarini qanoatlantirish uchun shaharlar hamda boshqa aholi punktlari o'rtasida yuklar va yo'lovchilar tashishni ta'minlaydi;

xo'jalik avtomobil yo'llari – davlat yoki yuridik va jismoniy shaxslarning mulkidir. Texnologik maqsadlarga xizmat qiladigan yo'llar, shoxobcha, xizmat, patrul va boshqa shunga o'xshash avtomobil yo'llari xo'jalik avtomobil yo'llari jumlasiga kiradi;

umumiy bosib o'tilgan masofa (kilometr) – transport vositasining garajga (to'xtash joyiga) qaytishi va garajdan (to'xtash joyidan) chiqib ketishi vaqtidagi spidometr ko'rsatkichlari o'rtasidagi bir kunlik farqni ifodalaydi. Umumiy bosib o'tilgan masofa, hisobot davri mobaynida barcha foydalanilayotgan avtomobillarning har kunlik bosib o'tgan masofalarini yig'indisi orqali aniqlanadi;

yuk ko'tarish qobiliyati (yo'lovchi sig'imi)dan foydalanish koeffitsiyenti (nominal yuk ko'tarish qobiliyati (yo'lovchi sig'imi)dan foydalanish darajasi) – tashilgan yuklar (yo'lovchilar) sonini avtomobilning texnik tavsifnomasi bo'yicha nominal yuk ko'tarish qobiliyati (yo'lovchi sig'imi)ga nisbati orqali aniqlanadi;

tramvay yo'lining foydalaniladigan uzunligi (trolleybus liniyasi) ikki yoqlama hisobida yo'llarda vagonlar (mashinalar) harakatlanishi uchun mo'ljallangan yo'lining (chiziq) uzunligini aks ettiradi;

yoyilgan yo'llar uzunligi (liniya) hisobot yili oxiriga tramvay, metropoliten (trolleybus) xo'jaligi balansida bo'lgan barcha – yo'lovchi, yuk, depo yo'llari, razyezdlar, tutashgan yo'llar, burilish halqalari va boshqa yo'llar uzunligi qo'shiladi va bir yoqlama (bir liniyal) yo'l hisobida keltiriladi;

metro yo'lining foydalaniladigan uzunligi, ikki yoqlama hisobda hisoblanadi va bekatlar orasidagi asosiy yo'lining uzunligini tashkil etadi;

havo transportida muntazam tashuvchilar – yo'lovchilar, yuk va pochta tashishni amalga oshiruvchi aviatashuvlar, shuningdek korxonalar, tashkilotlar va aholining ehtiyojlari uchun muntazam va shartnoma asosida aviatsiya ishlari. Muntazam tashish rejalashtirilgan va haq evaziga e'lon qilingan jadvalga muvofiq, amalga oshiriladigan reyslar, yoki ma'lum bir tizimlashtirish uchun javobgar va jamoat foydalanishi uchun mavjud yetarli tez - tez parvozlar, shuningdek, muntazam reyslar ortiqcha yuk sabab qo'shimcha reyslarni o'z ichiga oladi;

havo transportida nomuntazam tashuvlar – aviakompaniyalar (ularning tashkiliy huquqiy va mulkchilik shakllaridan qat'i nazar), korxonalar va aholining ehtiyojlari uchun yuk va yo'lovchilarni tijorat asosida tashish va aviatsiya ishlarini faqat nomuntazam (charter) reyslar, maxsus reyslar, turistik yo'nalishlarda amalga oshirish, bular muntazam tashuvlarda aks etmaydi;

tranzit tashishlar – yo'lovchilarni, bagajni, yuk bagajini, yuklarni, pochta va kuryerlik jo'natmalarini O'zbekiston Respublikasi hududi orqali har qanday turdagi transportda olib o'tish jo'natish va yetkazish punktlari O'zbekiston Respublikasidan tashqarida bo'lgan yo'lining faqat bir qismi bo'lsa, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi transporti vositalarida chet davlatlar hududi orqali amalga oshiriladigan tashish – tranzit tashishdir.

2- bob. Ma'lumotlarni qamrab olish, qamrov darajasi

4. Transport statistikasida tarmoq mezoniga ko'ra, quvur, temir yo'l, avtomobil, havo va elektr transporti statistikasi ajratilgan.

5. Transport statistikasi kuzatuv obyektlari quyidagilar hisoblanadi:

“O'zstandart” agentligining 2011- yil 28- yanvardagi 05-268- sonli qarori bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy faoliyat turlari umumdavlat tasniflagichi, 2- tahriri (IFUT-2)ning 49, 50, 51, 52 kodlari bilan tasniflangan iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yuk va yo'lovchi tashish faoliyatini (asosiy va asosiy bo'lmagan) amalga oshiruvchi yuridik shaxslar, yuridik shaxslarning alohida bo'linmalari, alohida balansga ega bo'lganlar;

tashish faoliyati bilan shug'ullanuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar va o'zini o'zi band qilgan jismoniy shaxslar.

6. Yuklarni tashish va yo'lovchilarni tashish faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarni statistik kuzatuvlar va yakka tartibdagi tadbirkorlar hamda o'z o'zini band qilgan jismoniy shaxslarni tanlanma statistika so'rovnomalari orqali qamrab olinishi statistika kuzatuvlari birliklarining yig'indisini shakllantirish statistika registri va soliq organlarining ma'lumotlari asosida har chorakda va har yili statistika organlari tomonidan amalga oshiriladi.

7. Tanlov mezonlari: balansdagi yoki ijaraga beriladigan avtotransport vositalarining mavjudligi, yuridik shaxslarning tashkiliy-huquqiy shakli, yuridik shaxsning mansubligi.

8. Transport sohasidagi statistik kuzatuvlar va so'rovlarning respondentlari bo'lib yuridik shaxslar, ularning alohida balansga ega bo'lgan alohida bo'linmalari, tashish faoliyati bilan shug'ullanuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar va o'zini o'zi band qilgan jismoniy shaxslar hisoblanadi.

9. Yuk tashish va yuk aylanmasi, yo'lovchi tashish va yo'lovchi aylanmasi hajmlari temir yo'l, avtomobil va havo transporti bo'yicha dastlabki ma'lumotlar har chorakda, yakuniy ma'lumotlar – yilida bir marta shakllantiriladi.

Quvur transportining yuk tashish va yuk aylanmasi bo'yicha dastlabki ma'lumotlar har chorakda va yakuniy ma'lumotlar esa yiliga bir marta shakllantiriladi.

Elektr transportida yo'lovchilarni tashish va yo'lovchi aylanmasi hajmi bo'yicha dastlabki ma'lumotlar har chorakda, hamda yakuniy ma'lumotlar yiliga bir marotaba shakllantiriladi.

Temir yo'l, quvur, avtomobil, havo, elektr transportining moliyaviy natijalari to'g'risidagi ma'lumotlar yillik davriyligi asosida shakllantiriladi.

3- bob. Statistik kuzatuvning tashkiliy shakli

10. Transport tashkilotlari faoliyatining statistik kuzatishlari hisobot shakllari asosida amalga oshiriladi (agar quyida sanab o'tilgan statistik hisobotlar va kuzatishlarning qisqartmasi yoki nomi o'zgartirilsa, u o'zgartirilgan statistik hisobotlar va kuzatishlar asosida shakllantiriladi);

statistika organlariga belgilangan tartibda respondentlar tomonidan taqdim etiladigan tanlanma kuzatuvlar;

idoraviy statistik kuzatuvlar;

ma'muriy ma'lumotlar.

4- bob. Statistika kuzatuvlari instrumentlari va dasturi

11. Statistika va idoraviy hisobotlarning quyidagi shakllari statistika kuzatuvlarini o'tkazish vositasi hisoblanadi:

avtomobil transporti statistikasi bo'yicha:

taqdim etish davriyligi yillik:

1 transport shakli "Avtomobil, elektr (tramvay, metropoliten, trolleybus) transporti va xo'jalik avtomobil yo'llari uzunligi to'g'risida hisobot";

1 kb shakli "Mikrofirma va kichik korxona hisoboti";

1 notijorat shakli "Notijorat tashkiloti faoliyati to'g'risidagi hisobot";

1 logistika shakli "Logistika, transport-ekspeditsiya faoliyati to'g'risidagi hisobot";

1 kb (logistika) shakli "Logistika, transport-ekspeditsiya faoliyati to'g'risidagi hisobot";

taqdim etish davriyligi choraklik:

4 transport shakli "Avtomobil, elektr (tramvay, metropoliten, trolleybus) transporti ishi to'g'risida hisobot";

4 tr (jsh) shakli "Shaxsiy avtotransport egalarining tashish faoliyati to'g'risida so'rovnoma" tanlanma so'rovnoma natijalari;

temir yo'l transporti statistikasi bo'yicha:

taqdim etish davriyligi yillik:

1 temir yo'l shakli (umumfoydalanmaydigan) "Umumiy foydalanilmaydigan temir yo'l transporti to'g'risidagi hisobot";

havo transporti statistikasi bo'yicha:

taqdim etish davriyligi yillik:

1 havo yo'llari shakli "Umumiy foydalanishdagi havo transporti xizmatlari to'g'risidagi hisobot";

taqdim etish davriyligi choraklik:

4 havo yoli shakli "Umumiy foydalanishdagi havo transporti xizmatlari bo'yicha so'rovnoma".

12. Rasmiy statistika ma'lumotlarini shakllantirishda foydalaniladigan ma'muriy ma'lumotlar:

"O'zbekiston temir yo'llari" AJning umumiy foydalanishdagi temir yo'l transporti statistikasi bo'yicha ma'muriy ma'lumotlar;

havo transporti statistikasi bo'yicha "UZBEKISTAN AIRPORTS" AJ, "UZBEKISTAN AIRWAYS" AJlarning ma'muriy ma'lumotlari (1 temir yo'l (umumfoydalanadigan) (yillik) "Umumiy foydalanishdagi temir yo'l transporti to'g'risidagi hisobot");

Transport vazirligi huzuridagi Avtomobil yo'llari davlat qo'mitasining umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llari to'g'risida ma'lumotlari;

Ichki ishlar vazirligining ro'yxatdan o'tgan avtomobil transport vositalari mavjudligi, YTH soni to'g'risidagi ma'muriy ma'lumotlari.

13. Respondentlar tomonidan avtomobil transporti, havo, quvur, temir yo'l, elektr transporti ishi to'g'risidagi statistik va idoraviy hisobot shakllarini buxgalteriya hisobi, birlamchi hisob va boshqa hujjatlar ma'lumotlari asosida to'ldiriladi.

14. Statistika hisobotlari alohida balansga ega bo'lgan yuridik shaxslarning alohida bo'linmalari tomonidan E-STAT avtomatlashtirilgan axborot tizimi orqali elektron hujjat shaklida va alohida holatlarda qog'oz ko'rinishida yuridik shaxslar tomonidan taqdim etiladi.

Idoraviy hisobot yuridik shaxslar, alohida balansga ega bo'lgan yuridik shaxslarning bo'linmalari tomonidan elektron shaklda yoki qog'oz ko'rinishida idoraviy hisobot shakllarida ko'rsatilgan manzillarga taqdim etiladi.

15. O'zbekiston Respublikasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri kesimida avtomobil transporti bo'yicha ma'lumotlar shakllanadi, qolgan temir yo'l, havo va quvur transportida tashish xizmatlarini hududlar bo'yicha taqsimlash imkoni mavjud emas. Shu bilan birga, transport statistikasining asosiy ko'rsatkichlari transport va tashish turlari bo'yicha (yuk va yo'lovchi) guruhlariga bo'linadi.

5- bob. Transport turlari bo'yicha statistik hisobotning xususiyatlari

1-§. Temir yo'l transporti statistikasi

16. Umumiy foydalanishdagi temir yo'l transportida statistik kuzatuvning asosiy obyektlari yuk va yo'lovchilarni tashish, harakat tarkibi, yo'l va yo'l xo'jaligi, transport faoliyatining moliyaviy natijalari hisoblanadi.

17. Temir yo'l qatnovlari quyidagi turlarga bo'linadi:

ichki qatnovlar – yuklar, yo'lovchilar, bagaj va yuk bagajini O'zbekiston Respublikasi doirasida tashish;

xalqaro qatnovlar – yuklar, yo‘lovchilar, bagaj va yuk bagajini O‘zbekiston Respublikasi va boshqa davlatlar o‘rtasida tashish;

to‘g‘ri aralash qatnovlar – yuklarni yagona transport hujjati bo‘yicha transportning har xil turlarida tashish. To‘g‘ri aralash qatnovlar ham ichki, ham xalqaro bo‘lishi mumkin.

Alohida muhim davlat ehtiyojlarini, shu jumladan mudofaa ehtiyojlarini qondirish uchun yuklarning maxsus turlari tashilishini ta‘minlovchi tashishlar maxsus tashishlar jumlasiga kiradi.

18. Umumiy foydalanishdagi temir yo‘l transportida statistik kuzatuv birligi temir yo‘l va uning korxona va tashkilotlari bo‘lib, umumiy foydalanishdagi temir yo‘l infratuzilmasini o‘z ichiga oladi hamda yuk va yo‘lovchilarni tashishga bo‘lgan ehtiyojni ta‘minlaydi.

19. Umumiy foydalanilmaydigan temir yo‘l transportida statistik kuzatuv birligi balansda infratuzilmaga ega temir yo‘l yo‘llari, tortish va harakatdagi tarkibga ega tashishni amalga oshiruvchi korxona hisoblanadi.

20. Temir yo‘l transporti statistikasining ma‘lumotlarni shakllantirish uchun axborot manbalari choraklik va yillik davrlar bo‘yicha statistik hisobot shakllari hisoblanadi.

21. Yuk tashish hajmini hisobga olish quyidagi tarzda amalga oshiriladi:

a) temir yo‘l transportida yuklarni tashish yetib kelishi bo‘yicha hisobga olinadi. Yuklarni temir yo‘l orqali tashishning umumiy hajmi ichki (mahalliy tashish) va xalqaro tashish (import, eksport, tranzit)ni o‘z ichiga oladi;

b) yukning alohida qismi, xususiy (shaxsiy) va bo‘sh holatdagi ijaraga olingan vagonlar, bagaj, yuk vagonlari bir nuqtadan ikkinchisiga yuborilgan va tashish hujjatlari bilan rasmiylashtirilgan deb hisoblanadi;

d) tashilgan yuklarning hajmini hisoblashda yuk tashish hujjatlarida ko‘rsatilgan og‘irlik, shu jumladan, yuk konteynerlarining og‘irligi, shuningdek, tashishda ishlatiladigan barcha moslamalar va jihozlarning vazni hisobga olinadi;

e) tashilgan xususiy (shaxsiy) va ijaraga olingan vagonlar soni bo‘sh holatda, har bir vagonning konteyner vaznidan kelib chiqqan holda belgilanadi;

f) temir yo‘l transportida yuk aylanmasi bo‘sh holatda xususiy (shaxsiy) va ijaraga olingan vagonlarning og‘irligini bosib o‘tgan yo‘lini hisobga olgan holda aks ettiriladi, transport masofasidagi tonnalaridagi har bir jo‘natmaning yuk og‘irligini yig‘indisi sifatida hisoblanadi va tonna – kilometrlarda o‘lchanadi;

g) yo‘lovchilarni tashish jo‘nab ketgan, tranzit va kelgan yo‘lovchilar summasini o‘z ichiga oladi. Yo‘lovchilar sonini hisobga olish obyekti bitta yo‘lovchining bir yo‘nalishdagi ikkita nuqta orasidagi har bir qatnovi hisoblanadi.

Yo'lovchilarni tashish ushbu hisobot davrida sotilgan va bepul berilgan chiptalar soniga ko'ra, shu davrga to'g'ri keladigan yo'lovchi tashishlar, guruh chiptalari, yuk hujjatlari, obuna va boshqa chiptalar bo'yicha amalga oshiriladi;

Yo'lovchilar tashish ichki, shahar atrofi va xalqaro aloqalar bo'yicha hisobga olinadi.

Ichki tashishlarga O'zbekiston Respublikasi doirasida amalga oshiriladigan yuklar, yo'lovchilar, bagaj va yuk bagajlarini tashish kiradi.

Shahar atrofidagi qatnovlarga shahar atrofidagi tarif bo'yicha to'langan yo'lovchilar tashish kiradi.

Xalqaro tashishlarga O'zbekiston Respublikasi va boshqa xorijiy davlatlar o'rtasida amalga oshiriladigan yuklar, yo'lovchilar, bagaj va yuk bagajlarini tashish, shu jumladan O'zbekiston Respublikasi hududi bo'yicha tranzit kiradi, buning natijasida yo'lovchilar O'zbekiston Respublikasi va xorijiy davlatlar o'rtasidagi chegaralarni kesib o'tadilar.

h) temir yo'l transportida yo'lovchi tashish aylanmasi transportning yo'lovchi tashish bo'yicha ish hajmini ko'rsatadi. O'lchov birligi yo'lovchi-kilometr hisoblanadi. Har bir tashish bo'yicha yo'lovchilar sonini tashish masofasiga ko'paytmasini yig'indisi orqali aniqlanadi.

i) yuk tashishdan tushadigan daromadlar yuk to'lovidan, xususiy (shaxsiy) va ijaraga olingan vagonlarning bo'sh ish vaqti, qo'shimcha yig'imlar, temir yo'l ma'muriyatlari o'rtasida yuk tashish uchun hisob-kitoblardan iborat;

j) bagajni tashishdan olinadigan daromad yuk tashish to'lovi va bagaj kvitansiyasining orqasida ko'rsatilgan qo'shimcha to'lovlar miqdori bilan belgilanadi;

k) yo'lovchilarni tashishdan tushadigan daromadlar orasida yuk tashish to'lovlari miqdori va tezkorlik uchun turli xil to'lovlar, uyqu joylari, kupe va yumshoq vagonlarda sayohat qilish kiradi. Yo'lovchilarni tashishdan tushadigan daromadlar yo'lovchilarni tashish bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar uchun dotatsiyalar va subsidiyalarni o'z ichiga olmaydi.

2-§. Avtomobil va elektr transporti statistikasi

22. Yuk va yo'lovchilarni tashish, harakat tarkibi, ulardan foydalanish, transport ishlarining moliyaviy natijalari avtomobil va elektr transportida statistik kuzatuv obyektlari hisoblanadi.

23. Avtomobilda tashishlar shahardagi, shahar atrofidagi, shaharlararo va xalqaro tashishga bo'linadi.

Shahardagi tashishlar jumlasiga shahar yoki shahar posyolkasi chegaralari doirasida amalga oshiriladigan tashishlar kiradi.

Shahar atrofidagi tashishlar jumlasiga shahar yoki shahar posyolkasi chegaralari doirasidan 50 kilometr gacha tashqarida amalga oshiriladigan tashishlar kiradi.

Shaharlararo tashishlar jumlasiga shahar yoki shahar posyolkasi chegaralari doirasidan 50 kilometr dan oshiq masofada amalga oshiriladigan tashishlar, shuningdek, yo'nalish masofasidan qat'i nazar O'zbekiston Respublikasining ikki yoki undan ortiq viloyatlar hududida amalga oshiriladigan tashishlar kiradi.

Xalqaro tashishlar jumlasiga yo'nalish masofasidan qat'i nazar O'zbekiston Respublikasi davlat chegarasidan tashqariga yoki davlat chegarasi tashqarisidan amalga oshiriladigan tashishlar kiradi.

24. Avtomobil va elektr transporti statistik kuzatuv birligi bo'lib avtotransport vositalaridan foydalanuvchi korxonalar, tramvaylarda, trolleybuslarda va metroda tashishni amalga oshiruvchi korxonalar, avtotransport vositalari egalari jismoniy shaxslar (yuk va yo'lovchilarni tijorat maqsadida tashish bilan shug'ullanuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar va o'zini o'zi ish bilan band qilgan jismoniy shaxslar) hisoblanadi

25. Avtomobil va elektr transporti statistikasi bo'yicha ma'lumotlarni shakllantirish uchun axborot bazasi:

a) transport korxonalari va tashkilotlarining choraklik va yillik davriylikda statistik kuzatuvlari;

b) davlat organlarining transport vositalari mavjudligi, avtomobil yo'llari uzunligi, yo'l – transporti hodisalari to'g'risidagi ma'muriy ma'lumotlari;

d) avtomobil transporti sohasida yakka tartibdagi tadbirkorlar va o'zini o'zi band qilgan jismoniy shaxslar faoliyati hajmlarini baholash.

26. Tashish hajmlarini hisobga olish quyidagi tarzda amalga oshiriladi:

a) shahar yo'nalishida transportda (avtobus, elektrobus, trolleybus, yo'nalishli taksi, tramvay va metropolitenda) tashilgan yo'lovchilar soni:

cheklangan tariflarni qo'llagan holda – sotilgan bir martalik chiptalar soni bo'yicha yoki tushumni cheklangan tarifga taqsimlash yo'li bilan aniqlanadi. Bunda, elektron to'lov tizimi operatorlariga amaldagi cheklangan tariflarga nisbatan 10 foiz gacha chegirma taqdim etilishi mumkin;

transport kartasidan foydalangan holda – transport kartasidan foydalangan yo'lovchilarning, jumladan, imtiyozli va bepul yurish huquqiga ega bo'lgan yo'lovchilarning har bir transport turida amalga oshirilgan validatsiyalari soni bo'yicha aniqlanadi. Muayyan tashuvchi tomonidan tashilgan yo'lovchilar hajmi hisobot davrida amalga oshirilgan validatsiyalarni umumlashtirish orqali aniqlanadi;

b) oylik transportda yurish kartochkasi va transportda bepul yurish huquqini beradigan yagona guvohnomalar bo'yicha tashilgan yo'lovchilar soni:

sotilgan oylik transportda yurish kartochkalari va transportda bepul yurish huquqini beradigan yagona guvohnomalarning berilgan sonini Vazirlar Mahkamasining 2012- yil 17- sentabrdagi 273- son qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasida yo'lovchilar aylanmasini va umumiy foydalaniladigan avtomobil va elektr transportida shaharda, shahar atrofida, shaharlararo, xalqaro yo'nalishlarda hamda soatlar bo'yicha tashilgan yo'lovchilar sonini aniqlash tartibi to'g'risida"gi Nizomga muvofiq belgilangan oylik yurishlar soniga ko'paytirish yo'li bilan aniqlanadi;

tashuvchilar o'rtasida ulardan har birining bir martalik chiptalar bo'yicha tashigan yo'lovchilari soniga mutanosib ravishda taqsimlanadi.

d) shahar atrofidagi yo'nalishlarda tashilgan yo'lovchilar soni yo'lovchi aylanmasini ushbu muayyan yo'nalishda yo'lovchi bosib o'tadigan o'rtacha masofaga taqsimlash yo'li bilan aniqlanadi;

e) shahar yo'nalishidagi shahar atrofi yo'nalishlarida tashilgan yo'lovchilar soni tashilgan yo'lovchilarning umumiy sonini shahardagi yo'nalishning umumiy yo'nalish masofasidagi ulushiga ko'paytirish yo'li bilan aniqlanadi;

f) shaharlararo va xalqaro yo'nalishlarda tashilgan yo'lovchilar soni sotilgan bir martalik chiptalar soni hamda transportning aniq bir turida amalga oshirilgan validatsiyalar soniga teng holda qabul qilinadi;

g) soatlar bo'yicha tashuvlarda tashilgan yo'lovchilar soni yo'lovchi tashuvlari sonini ushbu tashuvchining shahar atrofidagi yo'nalishda yo'lovchining bosib o'tgan o'rtacha masofasiga taqsimlash yo'li bilan aniqlanadi. Agar tashuvchida bunday tashuvlar mavjud bo'lmasa, u holda hisoblash uchun 10 kilometrga teng bo'lgan masofa olinadi;

h) yo'nalishsiz taksilarda tashilgan yo'lovchilar soni to'lovli bosib o'tilgan masofani yo'lovchilarning o'rtacha soniga ko'paytirish va yo'lovchilar tashishning o'rtacha masofasiga taqsimlash yo'li bilan aniqlanadi.

Yo'nalishsiz taksida tashilgan yo'lovchilarning o'rtacha soni:

shahar yo'nalishida – 2 nafarga;

shahar atrofidagi, shaharlararo va xalqaro yo'nalishlarda – 4 nafarga teng holda qabul qilinadi.

Yo'nalishsiz taksida yo'lovchi tashishning o'rtacha masofasi:

shahar yo'nalishida – shahar jamoat transportida yo'lovchilar tashishning o'rtacha masofasiga;

shahar atrofidagi yo'nalishda – 10 kilometrga teng holda qabul qilinadi.

Shaharlararo va xalqaro yo'nalishlarda yo'nalishsiz taksida yo'lovchilar tashilganda tashishning o'rtacha masofasi shaharlararo va xalqaro yo'nalishlarda avtobuslarda yo'lovchilar tashishning o'rtacha masofasiga teng holda qabul qilinadi.

i) metro liniyalari o'rtasida o'tgan yo'lovchilar qayta hisobga olinmaydi.

27. Yo'lovchilar aylanmasi umumiy foydalaniladigan transportda (avtobus, elektrobus, yo'nalishli va yo'nalishsiz taksi, tramvay, trolleybus va metropolitenda) bajariladigan shahar, shahar atrofi, shaharlararo, xalqaro yo'nalishlarda tashuvlarning har qaysi turi hamda soatlar bo'yicha tashuvlar uchun alohida-alohida aniqlanadi;

a) yo'lovchilar aylanmasi shahar yo'nalishlarida umumiy foydalaniladigan transportda (avtobus, elektrobus, yo'nalishli taksi, tramvay, trolleybus va metropoliten) tashishda tashilgan yo'lovchilar sonini yo'lovchilar oqimini tanlab tahlil qilish asosida hisoblab chiqiladigan ushbu yo'nalish bo'yicha yo'lovchi bosib o'tadigan o'rtacha masofaga ko'paytirish yo'li bilan aniqlanadi;

b) oylik transportda yurish kartochkalari bo'yicha yo'lovchilar aylanmasi, tashuvchilar o'rtasida ular tomonidan tashilgan to'lov to'lab yuradigan yo'lovchilar soniga mutanosib ravishda taqsimlanadi;

d) transportda bepul yurish huquqini beradigan yagona guvohnomalar bo'yicha yo'lovchilar aylanmasi, shu jumladan metropolitenda, tashuvchilar o'rtasida ular tomonidan tashilgan to'lov to'lab yuradigan yo'lovchilar soniga mutanosib ravishda taqsimlanadi;

e) Shahar atrofidagi yo'nalishda yo'lovchilar aylanmasi bir martalik chiptalar bo'yicha yo'lovchilar tashishdan tushgan umumiy tushumni tashilgan (bagaj tashishdan tushumni chegirgan holda) bir yo'lovchi – kilometr uchun cheklangan tarifga taqsimlash yo'li bilan aniqlanadi;

f) Shaharlararo va xalqaro yo'nalishlarda yo'lovchilar aylanmasi bir martalik chiptalar bo'yicha yo'lovchilar tashishdan tushgan tushumni (bagaj tashish va sug'urta to'lovini chegirgan holda) bir yo'lovchi – kilometr uchun cheklangan tarifga bo'lish yo'li bilan aniqlanadi;

g) umumiy foydalaniladigan avtobusda soatlar bo'yicha tashishlar uchun yo'lovchilar aylanmasi (turizm – ekskursiya avtobuslaridan tashqari) 0,65 miqdoriga teng holda qabul qilinadigan avtobuslarning bosib o'tgan masofasi va yo'lovchi sig'imidan foydalanish koeffitsiyentlarini hisobga olgan holda, avtobuslarning umumiy bosib o'tgan masofasi va avtobuslarning o'rindiqlari soni bo'yicha sig'imi hosilasi sifatida aniqlanadi;

h) yo'nalishsiz taksi bo'yicha yo'lovchilar aylanmasi tashilgan yo'lovchilar sonini to'lov to'lab yuriladigan kilometrlarga ko'paytirish yo'li bilan aniqlanadi;

i) avtotransportda yuk tashish yuk avtomobillida, shu jumladan, avtotirkamalar, pikaplar va furgonlarda tashilgan yuklar miqdorini o'z ichiga oladi. Tashilgan yuklarni hisobga olish kelish vaqtida amalga oshiriladi. Tashilgan yuklar hajmi har bir qatnov (kelish) uchun tara og'irligi, konteynerlar og'irligi hisobga olingan holda, tashilgan yuklarning haqiqiy og'irligi bilan ko'rsatiladi;

j) avtomobil transportining yuk aylanmasi har bir qatnov bo'yicha tashilgan yukning og'irligini (shu jumladan tirkamalarda tashiladigan yukni) bosib o'tgan masofasiga ko'paytmasining yig'indisi orqali aniqlanadi.

k) barcha yo'nalishlarda avtobuslar orqali yo'lovchilarni tashishdan tushgan tushumga barcha turdagi chiptalarni (alohida yo'lovchilar, korxona va tashkilotlar uchun) sotishdan olingan amaldagi tushumning umumiy yig'indisi hamda yo'lovchilarni avtobuslarda maxsus buyurtma orqali tashishdan tushgan tushum kiradi;

l) yengil taksi orqali yo'lovchilarni tashishdan olinadigan daromadlarga, yo'lovchilarni yengil taksi orqali tashishdan olingan tushumdan tashqari (taksining telefon orqali oldindan buyurtmalaridan tushgan daromadlarni hisobga olgan holda) aloqa korxonasining pochta va davriy nashrlarini tashishdan naqd pulsiz hisob-kitob qilish orqali tushgan daromadlar kiritiladi;

m) yo'lovchilarni tramvaylar, trolleybuslar orqali tashishdan tushgan daromadlarda metro barcha turdagi oylik transportda yurish hujjatlarini sotishdan, ham alohida fuqarolar, ham korxonalar va tashkilotlarga amaldagi daromadning umumiy miqdorini o'z ichiga oladi. Shahar yo'lovchi transportining ishi ijro etuvchi hokimiyat organlari va tegishli transport korxonalari va tashkilotlari o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlar asosida tashkil etilgan shaharlarda korxonalar tomonidan joriy tarif bo'yicha yo'lovchilarni tashish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar uchun olingan daromadlar aks ettiriladi (100 o'rin uchun – kilometr).

28. Avtomobil transporti faoliyati quyidagi ko'rsatkichlar bilan tavsiflanadi:

a) avtomobil transportining umumiy yuk ko'tarish qobiliyati mavjud yuk avtomobillarining har bir rusumi bo'yicha ularning nominal yuk ko'tarish qobiliyati (ishlab chiqaruvchi zavod tomonidan berilgan pasporti asosida) yig'indisiga;

b) avtobuslarning umumiy yo'lovchi sig'imi, har bir rusumdagi avtobuslar (mikroavtobuslar) sonini ularning o'rindiqlar bo'yicha sig'imiga ko'paytirishdan hosil bo'lgan ko'paytmani yig'indisi orqali aniqlanadi;

d) avtomobil parkining foydalanish koeffitsiyenti avtomobil-harakat tarkibining ishda bo'lgan kunlarini avtomobil-harakat tarkibining xo'jalikda bo'lgan kunlari nisbati sifatida aniqlanadi:

$$K_{fk} = AD_r / AD_x,$$

bu yerda:

K_{fk} – avtomobil parkining foydalanish koeffitsiyenti;

AD_i – avtomobil – harakat tarkibining ishda bo‘lgan kunlari;

AD_x – avtomobil-harakat tarkibining xo‘jalikda bo‘lgan kunlari;

e) yuk avtomobillari va avtobuslarning, yengil taksilarning bosib o‘tgan masofasini foydalanish koeffitsiyenti mos ravishda yuk bilan, yo‘lovchilar bilan bosib o‘tilgan masofani umumiy bosib o‘tilgan masofaga nisbati sifatida aniqlanadi:

$$K_{fk} = M_{yu/yo} / UM,$$

bu yerda:

K_{ip} – yuk avtomobillari va avtobuslarning, yengil taksilarning bosib o‘tgan masofasini foydalanish koeffitsiyenti;

$M_{yu/yo}$ – yuk bilan, yo‘lovchilar bilan bosib o‘tilgan masofa;

UM – umumiy bosib o‘tilgan masofasi;

f) avtotransport vositalarining tashkilot ixtiyorida bo‘lishi (avtomobil-kun) har bir avtomobilning dam olish va bayram kunlarini qo‘shgan holda hisobot yili davomida tashkilotda bo‘lgan barcha kalendar kunlarini yig‘indisi orqali hisoblanadi;

g) avtotransport vositalarining ishda bo‘lishi (ishda avtomobil – kun) bir kecha-kunduzda qancha smena ishlaganligidan qat’i nazar, hisobot yilining har kunida yo‘nalishga chiqarilgan avtomobillar sonini yig‘indisi orqali hisoblanadi. Agar yo‘nalishga chiqqan yuk avtomobili yuk bo‘lmaganligi sababli hech qanaqa ish bajarmagan bo‘lsa, shuningdek, belgilangan topshiriq muddatidan oldin yo‘nalishdan qaytib kelgan avtomobil, qaytish sababidan qat’i nazar bir kun ishdagi avtomobil-kuni deb hisoblanadi;

